

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



german
cooperation

DEUTSCHE ZUSAMMENARBEIT

Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК ВАНODIROVICH**
O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo'llashning ayrim jihatlari

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar
to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления
в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового
регулирувания и их перспективы в Республике
Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik
prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy
ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning
o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud
tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning
subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish
shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor
and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy
asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных
гражданских служащих: теоретические и
методологические подходы
-
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН
ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ
ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./LRCR8711>
UDC: 349:336.225.6(045)(575.1)

SOLIQLARNI KECHIKTIRIB YOKI BO'LIB-BO'LIB TO'LASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turaboyev Ixtiyorjon Qobilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası
katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-2930-1774
e-mail: i.turaboev@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha qoidalar nazariy-ilmij tahlil qilingan. Jumladan, soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish moliyaviy qiyin ahvolga tushib qolgan soliq to'lovchilarga davlat tomonidan berilgan yordam ekanligi, bunday imkoniyat berilganida to'lanishi kechiktirilgan soliq uchun foizlar hisoblanishi ularni yanada qiyin ahvolga solishi mumkinligi ta'kidlangan. Maqolada 2020-yilda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidagi soliq to'lovchilar uchun belgilangan soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha qoidalar mazkur imkoniyatdan foydalanishni qiyinlashtirayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar soliq qonunchiligi tahlil qilinib, amaldagi soliq to'lash muddatini o'zgartirish qoidalarini soddalashtirish va mazkur qoidadan har qanday soliq to'lovchining foydalanishiga imkon yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, soliqlarni to'lashni kechiktirish orqali o'z mablag'larini ishlab chiqarishni kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llashni istagan soliq to'lovchilar uchun investitsiyaviy soliq krediti bo'yicha qoidalarni amaldagi Soliq kodeksiga kiritish takliflari bildirilgan.

Kalit so'zlar: soliq to'lovchi, soliq majburiyati, soliqlarni to'lashni kechiktirish, soliq qarzi, investitsiyaviy soliq krediti.

ОСОБЕННОСТИ ОТСРОЧКИ ИЛИ РАССРОЧКИ УПЛАТЫ НАЛОГОВ

Турабоев Ихтиёржон Кобилович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ правил изменения сроков уплаты налогов, предусмотренных в действующем налоговом законодательстве. Автор считает, что предоставление возможности по изменению сроков уплаты налогов является разновидностью государственной поддержки налогоплательщиков, находящихся в трудном финансовом положении, поэтому начисление процентов после предоставления отсрочки или рассрочки уплаты налогов может ещё более ухудшить их положение. По мнению автора, новые правила по представлению отсрочки или рассрочки уплаты налогов, введённые в 2020 году, усложняют механизм изменения сроков уплаты налогов налогоплательщиками. В статье на основе изучения налогового законодательства разных стран разработаны предложения по упрощению порядка предоставления преференции по изменению сроков уплаты налогов в целях создания равных условий использования данной возможности разными категориями

налогоплательщиков. Также автор предлагает внести изменения в действующий Налоговый кодекс, предусматривающие предоставление инвестиционного налогового кредита для налогоплательщиков, планирующих использовать средства по отсроченным налогам для расширения производства или применения инновационных технологий.

Ключевые слова: налогоплательщик, налоговое обязательство, отсрочка уплаты налогов, рассрочка уплаты налогов, налоговая задолженность, инвестиционный налоговый кредит.

PECULIARITIES OF TAX DEFERMENT OR INSTALLMENT PAYMENT

Turaboev Ikhtiyorjon Kobilovich,

Tashkent State University of Law,
Senior Lecturer at the Department
of Administrative and Financial Law, PhD in Law

Abstract. This article analyzes a theoretical and scientific analysis of the rules of changing the term of tax payment for taxpayers established in the current tax legislation. In particular, it was noted that changing the term of payment of tax is a state aid to taxpayers experiencing financial difficulties, and if such an opportunity is provided, the accrual of interest for late payment of tax may put them in a more difficult situation. The article stated that the provisions of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, which came into force in 2020, make it difficult for taxpayers to pay taxes in installments. In addition, the tax legislation of foreign countries was analyzed and proposals were developed to simplify the rules for changing the current tax payment period and allowing any taxpayer to use this rule. In addition, it was proposed to include in the current Tax Code provisions on investment tax incentives for taxpayers wishing to expand the production of their funds and use innovative technologies through tax deferral.

Keywords: taxpayer, tax liability, tax deferral, tax debt, investment tax credit.

Kirish

Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, soliq to'lovchilar belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida to'liq hajmda hisoblab chiqarishi hamda to'lashi shart. Ammo soliq to'lovchilar turli sabablarga ko'ra soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmasligi mumkin va bu holat soliq organlarining soliq qarzi summasini majburiy undirish bo'yicha harakatlar boshlashiga olib keladi. Shuning uchun ko'p davlatlar soliq qonunchiligida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha qoidalar kiritilgan.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligida soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki ularni bo'lib-bo'lib to'lash shaklida amalga oshiriladi. A. Pechenkina soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashni qiyin

ahvolda bo'lib turgan soliq to'lovchiga berilgan yordam sifatida tavsiflaydi (Pechenkina, 2014). Soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki ularni bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati mazmunan turli sabablarga ko'ra moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan soliq to'lovchilarga berilgan yordam hisoblanadi. Ba'zi davlatlar qonunchiligida soliq to'lash muddatini o'zgartirish soliq imtiyozi sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Armaniston Respublikasi Soliq kodeksida soliqlarni to'lashni kechiktirish soliq imtiyozlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, S. Alibekov ham soliqlarni to'lashni kechiktirishni soliq imtiyozi sifatida tavsiflaydi (Alibekov, 2013).

2019-yilda o'z kuchini yo'qotgan eski tahrirdagi Soliq kodeksida soliqlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash soliq ta'tillari sifatida tan olingan va vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan insof-

li soliq to'lovchilarga taqdim etilgan. Mazkur soliq ta'tillari soliq imtiyozi hisoblanmagan bo'lsa-da, uni soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini bajarish uchun taqdim etilgan yordam sifatida ko'rishimiz mumkin. Ammo 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksida soliq to'lash muddatlarini o'zgartirish qoidalari butunlay o'zgargan (How can you get an installment plan or deferment of taxes, 2021). Amaldagi soliq qonunchiligida soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati berilganda to'lashni kechiktirilgan soliq summasiga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga (hozirda 14 foiz) teng stavkadan kelib chiqqan holda foiz to'lash belgilanishi hamda kechiktirilgan soliq summasini to'lashni kafolatlash uchun kafillik, garov va bank kafolati singari majburiyat bajarilishini ta'minlash vositalari qo'llanishi soliq to'lovchilarga soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyatidan foydalanishni juda qiyinlashtirib yubormoqda (Turaboyev, 2021).

Shundan kelib chiqib, amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan soliq to'lash muddatini o'zgartirish qoidalarini soddalashtirish va mazkur qoidadan har qanday soliq to'lovchi foydalanishiga imkon yaratish zarurati bor.

Material va metodlar

Maqolani yozishda asosan qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanildi. Ushbu maqsadda soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirishni tartibga soluvchi milliy soliq qonunchiligi hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda tadqiqotning mantiqiy metodidan ham keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha qoidalar dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 22-iyuldagi 309-sonli "Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash

bo'yicha hukumat komissiyasini tuzish to'g'risida" qarori (2004-yil 9-fevralda o'z kuchini yo'qotgan) bilan amaliyotga kiritilgan. Mazkur qaror bilan Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Hukumat komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiyaga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi takliflari bo'yicha, penya yozishni to'xtatgan holda, o'z vaqtida to'lanmagan qarzlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash uchun muddat berish, soliqlar va budjetga to'lovlar bo'yicha penyalarni hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish vakolati beriladi. Hukumat komissiyasi tomonidan soliq qarzini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish jarayoni ushbu komissiya tasdiqlagan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 28-sentabrda 1071-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "O'z vaqtida to'lanmagan qarzlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash uchun muddat berish, penyalar yozishni to'xtatish, shuningdek, soliqlar va budjet hamda davlat maqsadli jang'armalariga to'lovlar bo'yicha penyalarni hisobdan chiqarish to'g'risida"gi nizom" (2005-yil 24-yanvarda o'z kuchini yo'qotgan) bo'yicha amalga oshirilgan. Mazkur nizomning 6-bandiga muvofiq, Hukumat komissiyasi qaroriga ko'ra soliq qarzini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati 24 oygacha berilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, o'sha paytda amalda bo'lgan, 1998-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksida soliq qarzini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha qoidalar mavjud emas edi. Ya'ni mazkur jarayon faqatgina yuqorida ta'kidlangan Vazirlar Mahkamasining qarori va Hukumat komissiyasining qaroriga asosan amalga oshirilgan. Faqatgina 2008-yil 1-yanvarda kuchga kirgan Soliq kodeksida (2020-yil 8-yanvarda o'z kuchini yo'qotgan) soliq qarzini to'lashni kechiktirish yoki

bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha qoidalar belgilab qo'yildi.

Ammo mazkur kodeksda ushbu holatga bag'ishlangan 2 tagina modda bo'lib, deklarativ xarakterda bo'lgan. E'tibor berish zarurki, kodeksning 54-moddasida soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash vaqtinchalik moliyaviy qiynalayotgan ega bo'lgan korxonalar davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir deb belgilangan. Ya'ni soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati soliq to'lovchiga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam ekanligi e'tirof etilgan.

Mazkur Kodeks 55-moddasida soliq qarzini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, deb

havola berilgan. Mazkur jarayon esa Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan nizom bo'yicha amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 30-dekabrda O'RQ-455-sonli "Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan Soliq kodeksining 54- va 55-moddalariga o'zgartirish kiritildi. Ushbu o'zgartirishlarga ko'ra, endilikda yuqoridagi moddalar soliq qarzini emas, balki soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashni tartibga solishi belgilandi. Ya'ni mazkur o'zgartirishlar na faqat soliq qarzi, balki joriy soliqlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashga ham taalluqli bo'ldi.

Quyidagi jadvalda 2019-yil 31-yanvarigacha amalda bo'lgan soliq va majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash turlari ko'rsatilgan.

Soliq va majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash turlari	Subyekti	Muddati
Soliq ta'tillari	<ul style="list-style-type: none"> Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan insofli soliq to'lovchilar Yagona soliq to'lovchilar 	24 oygacha yagona soliq to'lovini to'lash bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan e'tiboran bir yilgacha bo'lgan muddatga
Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash	Soliq qarzi bor soliq to'lovchilar	1 oydan 24 oygacha

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan tartibda soliq ta'tillari berish va soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi 2020-yil 1-yanvarda kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar amalda bo'ldi. Yangi tartibga ko'ra, soliq to'lashning muddatini keyinroq muddatga ko'chirish soliqni to'lash muddatini o'zgartirish deb e'tirof etiladi. Avvalgi tartibdan farqli o'laroq, kechiktirib to'lanadigan soliq summasiga foizlar hisobla-

nishi hamda soliq to'lash muddatini o'zgartirish uchun mol-mulk garovi, kafillik va bank kafolati singari soliq majburiyatini taxminlash usullaridan biri bilan o'z majburiyatini ta'minlash shartlari kiritildi.

Yangi Soliq kodeksi qabul qilinguniga qadar amalda bo'lgan soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish qoidalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, amaldagi soliq qonunchiligidagi mazkur norma soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'luvchi soliq

to'lovchilarni ancha qiyin ahvolga tushirib qo'yadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar Xalq deputatlari kengashlari soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish sohasida vakolatli organlar deb e'tirof etiladi. Davlat soliq qo'mitasiga QQS, aksiz solig'i, foyda solig'i, jismoniy shaxslarlan olinadigan soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha to'lash muddatlarini o'zgartirish bo'yicha vakolat berilgan bo'lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlariga esa suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliqlar muddatlarni o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilish vakolati berilgan. Mantiqan olib qaraganda, Davlat soliq qo'mitasida respublika budjeti daromadini shakllantiruvchi soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish vakolati bo'lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari mahalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi mahalliy soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha vakolatga ega bo'lyapti.

Soliq qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har qanday soliq bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini uch yilgacha bo'lgan muddatga berishga haqli, deb belgilab qo'yilgan. Ammo manfaatdor shaxslar tomonidan Vazirlar Mahkamasiga soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha murojaat qilish va Vazirlar Mahkamasining bu borada qaror qabul qilish tartibi soliq qonunchiligida umuman yoritilmagan.

Fikrimizcha, soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish vakolati faqatgina qonunchilikda belgilangan vakolatli organlarga tegishli bo'lishi zarur. Chunki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bundandamuhim vazifa va funksiyalari bor. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Vazirlar Mahkamasisi – O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro

etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Shuningdek, mamlakatda amalga oshiralayotgan ma'muriy islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi dastlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibiga kiritilgan edi. Ammo mazkur davlat organining maqomi o'zgarib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga huzuridagi Soliq qo'mitasi deb qayta tashkil etildi. Shularga asoslangan holda amaldagi soliq qonunchiligida soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilish faqat vakolatli organlarga tegishli bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz.

Ta'kidlaganimizdek, moliyaviy qiyinchi liklarga uchragan, soliqlarni to'lash imkoniyatiga ega bo'lmagan soliq to'lovchi uchun kafillik, mol-mulk garovi va bank kafolatini taqdim etish bo'yicha majburiyat bunday imkoniyatdan foydalanishni ancha cheklab qo'yadi. Shuningdek, endigina davlat ro'yxatidan o'tgan, moddiy resurslardan qiynalayotgan va joriy soliqlarni muddatini uzaytirib to'lash orqali mazkur mablag'laridan aylanma mablag'lar sifatida foydalanib, ishlab chiqarishni kengaytirishni rejalashtirgan soliq to'lovchilar qanday yo'l tutishi mumkin? Bunday imkoniyat soliq qonunchiligida mavjud deya olamizmi?

Ba'zi davlatlar soliq qonunchiligida investitsiyaviy soliq krediti tushunchasi mavjud va mazkur vosita ham soliq to'lash muddatini o'zgartirishning bir turi bo'lib, tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish maqsadida taqdim etiladi (Lyuter, 2020). Masalan, Rossiya Federatsiyasi soliq qonunchiligida tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borayotgan, nogironligi bor shaxslar uchun ish joylari yaratayotgan, ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar-

ni bajarishda energiya samaradorligini oshirayotgan va shunga o'xshash talablarni bajarayotgan tashkilotlar uchun investitsiyaviy soliq kreditini o'z ishlab chiqarishida qayta jihozlash taqdim etiladi.

2021-yil 1-yanvardan Qozog'iston Respublikasi soliq qonunchiligiga ham investitsiyaviy soliq krediti tushunchasi kiritildi. Investitsiyaviy soliq krediti korporativ daromad solig'i va mol-mulk solig'iga nisbatan 3 yil muddatgacha berilishi mumkin. Mazkur muddat davomida soliq to'lovchi ushbu soliq summasini kechiktirilgan muddat davomida to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi. Investitsiyaviy soliq krediti olish uchun soliq to'lovchi tegishli soliq organiga ariza bilan murojaat qiladi. Keyinchalik esa soliq organi va soliq to'lovchi o'rtasida investitsiyaviy soliq kreditini taqdim etish bo'yicha kelishuv tuziladi. Ushbu kelishuvda tomonlar mazkur investitsiyaviy soliq kreditini taqdim etish shartlarini aniqlab oladilar.

Shunisi qiziqki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi investitsiya qonunchiligida investitsiyaviy soliq krediti taqdim etish mumkinligi nazarda tutilgan. 2019-yil 15-dekabr-dagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasiga ko'ra, investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga investitsiyaga oid soliq krediti berilishi mumkin. Ushbu kredit soliq majburiyatini bajarish muddatini o'zgartirish shakli bo'lib, bunda soliq to'lovchi bo'lgan investor-ga belgilangan muddat ichida u to'lashi kerak bo'lgan soliq to'lovlarining kredit summasi va hisoblangan foizlarni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq keyinchalik bosqichma-bosqich to'lagan holda kamaytirish imkoniyati beriladi. Mazkur qonun soliq qonunchiligiga havola qilayapti, ammo Soliq kodeksida bunday qoida mavjud emas. Ehtimol, yuqoridagi qonun va Soliq kodeksi loyihalari tayyorlanayotgan paytda Soliq kodeksiga investitsiyaviy kredit to'g'risida qoidalarni kiritish ham nazarda tutilgandir, lekin bu bizning farazimiz xolos.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliqlarni to'lash muddatini o'zgartirish turli sabablarga ko'ra moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan soliq to'lovchilarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan bir yordamdir. Shuningdek, ba'zi davlatlar soliq qonunchiligi mazkur jayronni soliq imtiyozi deb ham e'tirof etadi.

Amaldagi soliq qonunchiligida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan soliq to'lovchilar soliq to'lash muddatini o'zgartirish tartibidan foydalanishi uchun foiz undirilishi belgilangan. Bu va mazkur soliq majburiyatini ta'minlash uchun mol-mulk garovi, kafillik hamda bank kafolati singari vositalarning talab etilishi soliq to'lovchilarga ushbu imkoniyatdan foydalanishni qiyinlashtirib qo'ymoqda. Soliq to'lovchlarning bu imkoniyatdan foydalanishni kengaytirish maqsadida ayrim takliflarni bildiramiz.

Birinchidan, soliqlarni to'lash muddatining o'zgartirilishini davlat tomonidan soliq to'lovchilarga berilayotgan yordam sifatida e'trof etish zarur. Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilayotgan soliq to'lovchilarga kechiktirilayotgan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan foizlarni bekor qilish maqsadga muvofiq. Chunki moliyaviy qiyin ahvolga tushib qolgan soliq to'lovchilardan soliq summasiga qo'shimcha 14 foiz undiraladigan bo'lsa, ushbu imkoniyatdan foydalanishning ahamiyati yo'qoladi.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikda Vazirlar Mahkamasi tomonidan soliqlarni to'lash muddatini berish tartibi aniq belgilab qo'yilmagan. Shu sababli, soliqlarni to'lash muddatini berish vakolatini faqatgina vakolatli organlar amalga oshirishi o'rinliroq bo'lardi.

Uchinchidan, davlat ro'yxatidan endi o'tgan hamda to'lanishi zarur bo'lgan soliq summalarini ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi texnologiyalarga kiritishni rejalashtirgan soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lashni kechiktirish tarzida investitsiyaviy

solliq krediti taqdim etishniva bu bo'yicha qoidalarni solliq qonunchiligiga kiritishni taklif etamiz. Bu esa, o'z navbatida, solliq to'lovchilarga bank va boshqa kredit muas-

sasalariga murojaat qilmasdan o'zi to'lashi lozim bo'lgan solliq summalarini to'lashni vaqtincha kechiktirish orqali reinvestitsiya qilish imkoniyatini bergan bo'lardi.

REFERENCES

1. Alibekov, S. (2013). Tax law of the Republic of Kazakhstan: General and Special parts (In Russian). Almaty.
2. Collective of authors (2022). *Financial law of the Republic of Uzbekistan* (In Russian). (p. 552). TSUL. Tashkent: Niso Poligraf.
3. Halperin, D., & Warren A. C. (2014). Understanding Income Tax Deferral. *67 Tax L. Rev.*, 317.
4. Hanna, C. H. (2009). The real value of tax deferral. *61 FLA. L. REV.*, 203.
5. How can you get an installment plan or deferment of taxes. (2021). *Journal of Taxation and Accounting*, 6.
6. Isenbergh, J. (2014). Perspectives on the Deferral of U.S. Taxation of the Earnings of Foreign Corporations. *66 Taxes - The Tax Magazine*, 1062(1988).
7. Khvan, L. B. (2001). *Tax Law* (In Russian). (P. 404). Tashkent: Konsauditinform.
8. Knyazev, V., & Chernik D. (Eds.). (1995). Tax systems of foreign countries (In Russian). Moscow: Russian Economic Academy. Available at: http://lib.maupfib.kg/wpcontent/uploads/2015/12/nalogovyi_systemy_zarub_stran.pdf
9. Lermontov, Yu. M. (2010). Submission of a deferment (installment plan) for tax payment (Comments on the Federal Law of July 27, 2010 No. 229-FZ) (In Russian). *Accounting in Budgetary and Non-Profit Organizations*.
10. Lyuter, A. A. (2020). Investment tax credit: concept and problems of application (In Russian). *Bulletin of Science and Education*, 15(93).
11. Pechenkina, A. A. (2014). Changing the tax payment deadline: can the state help the taxpayer (In Russian). *Scientific Bulletin of the Omsk Academy of the Ministry of Internal Affairs of RF*, 3(54), 13-17.
12. Pechenkina, A. A. (2018). *Emergence, change and termination of the obligation to pay tax* (financial and legal aspect) (In Russian). [Abstract of PhD thesis]. Saratov.
13. Pepelyayev, S. G. (Ed.). (2016). *Tax law* (In Russian). (P. 795). Moscow: Alpina Publisher.
14. Prohorovs, A., Fainglozs, L., & Stikute, V. (2016, September 16). *Introduction of corporate income tax deferral as an essential factor for economic development of Latvia*. <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2939173>
15. Turaboyev, I. K. (2021). Solliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlashning muhim jihatlari [Important aspects of ensuring the stability of tax legislation]. *Journal of Legal Studies*.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.
TDYU tipografiyasida chop etildi.